

ADABIYOTGA SADOQAT TIMSOLI — ALEKSANDR
ARKADYEVICH FAYNBERG

Burhonova Sitora Sunnatillo qizi

sitoraburhonova40@gmail.com

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi koreys tili fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri Aleksandr Faynbergning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi, falsafaviy dunyoqarashi va erishgan yutuqlariga bag'ishlangan. Unda shoirning yoshlik davrlaridan boshlab shakllanib kelgan ssenaristlik, tarjimonlik va shoirlik qobiliyatlariga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga ushbu maqola uning she'riy to'plamlari va asarlari haqida ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan.

Аннотация: Статья посвящена вкладу в развитие науки, философскому мировоззрению и достижениям народного поэта Республики Узбекистан Александра Файнберга. Основное внимание уделяется сценарным, переводческим и поэтическим способностям поэта, которые развивались с юных лет. В то же время в статье содержится информация о его поэтических сборниках и произведениях.

Abstract: This article is dedicated to the contribution to the development of science, philosophical outlook and achievements of the People's Poet of the Republic of Uzbekistan Alexander Feinberg. It focuses on the poet's screenwriting, translation and poetic abilities that have been formed since his youth. At the same time, this article also contains information about his poetry collections and works.

Kalit so'zlar : Faynberg, shoir, ssenarist, she'riy to'plam, adabiyot, tarjimonlik, asarlar, ijod, falsafaviy, yozuvchi, o'zbek va rus tillari.

Ключевые слова: Файнберг, поэт, сценарист, сборник стихов, литература, перевод, произведения, творчество, философский, писатель, узбекский и русский языки.

Keywords: Feinberg, poet, screenwriter, poetry collection, literature, translation, works, creativity, philosophical, writer, Uzbek and Russian languages.

Kirish:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" to'g'risidagi 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-qaroriga mufoviq yurtimizda yosh o'sib kelayotgan avlodni kitob, adabiyot va she'riyat madaniyatiga bo'lgan mehrlarini kuchaytirishga katta chora-tadbirlar o'tkazilmoqda. [1] Shu jumladan, Aleksandr Faynberg kabi o'zbek adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan shoir-u yozuvchilarning hayoti va ijodini o'rganish biz uchun sharaflı burchdir. Ushbu insonning ijodini o'rganish bilan biz nafaqat o'zbek adabiyotining chiroyini ko'rishimiz mumkin, balki rus adabiyoti bilan ham an'analarimiz va urf-odatlarimiz o'rtasidagi bog'liklik aloqalarni mustahkamlashidagi muhim rollarini ham ko'rishimiz mumkin. Faynbergning asarlari kitobxonlar tomonidan juda ko'p o'qilgani hamda tahlillarda tinimsiz aylangani bois, uzining chuqur falsafaviy mazmuni va badiiy ifodasi bilan ajralib kelmoqda. Faynberg ko'plab bolalikdagi hayot, ota-onaga bo'lgan mehr, vaqt o'tishi va insonning hayotdagi yo'llari to'g'risida yozgani uchun ham yosh-u qarining ko'nglidan joy egallagan.

Adabiyot va uslub tahlili:

O'zbek va rus xalq shoiri, mashxur ssenarist va tarjimon Aleksandr Arkadyevich Faynberg 1939-yilning 2-noyabr sanasida Toshkent viloyatining Toshkent shahrida tavallud topgan.[2] Ota-onasi tavalludidan 2 yil oldin Novosibirsk shahrida Toshkentga kuchib kelgan bo'ladi. Shu bois Toshkentdagi 7 yillik maktabni tamomlagach, Toshkent topografiya texnikumida o'z o'qishini davom ettirgan. O'qishni bitirib, Tojikiston respublikasida harbiy xizmatni o'tash uchun jo'nab ketgan. 1965-yildan boshlab Toshkent Davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetining sirtqi bo'limini tamomlab, talabalar gazetasida ishlagan. Faynberg o'zining ijodiy salohiyatini shakllantirgan

yoshlik va bolalik yillari Toshkent shahrida o'tdi. Faoliyati davomida bir necha yillar davomida Toshkent shahridagi yozuvchilar seminariga rahbarlik va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi hisoblangan.

Jami 15ta she'riy to'plam va ssenariylari asosida o'rta uzun metrajli 20dan ortiq multiplikatsion filmlar yaratgan. [3] Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, uning faoliyatidagi eng muhim yo'nalishlardan biri tarjimonlik faoliyati edi, hususan, Alisher Navoiy, G'ofur G'o'lom va Erkin Vohidovlarning asarlarini rus tiliga ugirgan va A. S. Pushkin, Yesenin va Anna Axmatovalarning ayrim she'rlarini o'zbek tiliga mohironalik bilan tarjima qilgan.[4]

Tahlil va natijalar muhokamasi:

Qalbi o'zbek bo'lgan bu rus shoiri umri davomida sezilarli ijod qildi. Buning isboti sifatida uni butun dunyoga tanitgan she'riy kitoblari, ssenariylari va tarjima asarlarini sanab o'tolaman. Misol sifatida „Etyud“ (1967), „Soniya“ (1969), „She'rlar“ (1977), „Olis ko'priklar“ (1978), „Ijobat“ (1982), „Qisqa to'lqin“ (1983), „Yoyma to'r“ (1984), „Erkin sonetlar“ (1990) kabi she'rlari Smena“, „Yoshlik“, „Yangi dunyo“, „Sharq yulduzi“, „Yangi Volga“ jurnallarida hamda adabiyoti kuchli bo'lgan AQSH, Kanada va Isroilning davriy nashrlarida ham chop etilgani yaqqol isbotdur. Faynberg o'z ijod faoliyati davomida asosiy e'tiborini asarlarni o'zbek va rus tillariga mohironalik bilan tarjima qilishga bag'ishlagan hamda o'zbek va rus adabiyotlari madaniyati o'rtasidagi ko'prikn mustahkam bo'lib turishida hissasi katta deb aytsak ham bo'ladi. Jumladan, o'zbek adabiyoti asoschisi Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning g'azallari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Omon Matjon kabi mashxur shoir va yozuvchilarning eng jozibakor va yirik doston-u she'rlarini professionallarcha rus tiliga tarjima qilgan. Jumladan, o'zbek adabiyoti asoschisi Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning g'azallari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Omon Matjon kabi mashxur shoir va yozuvchilarning eng jozibakor va yirik doston-u she'rlarini professionallarcha rus tiliga tarjima qilgan. Faynberg nafaqat adabiyot bilan cheklanib qolmay, balki kino olamida ham o'z so'zini ayta olgan. Uning ssenariysi asosida 4ta to'liq metrajli badiiy

film va 20 ga yaqin multfilmlar yaratilgan ("O'zbekfilm" kinostudiyasida-"Mening akam", „Jazirama oftob tagida“, „Qandahorda toblanganlar“, „Tojikfilm“ kinostudiyasida esa „Jinoyatchi va oqlovchilar“). A. Faynbergning ssenariysi asosida suratga olingan eng maxshur filmlaridan biri "Osmondagi stadion" bo'lib, u 1979-yilda afsonaviy "Paxtakor" futbol klubi a'zolari avtoholokatda vafot etganlarining 20 yilligiga bag'ishlangan edi.

Xulosa

A. Faynberg o'zining takrorlanmas ijodiy faoliyatining mukofati sifatida 2008-yilda Pushkin medali, 2004-yilda O'zbekiston xalq shoiri hamda 1999-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvonlari bilan taqdirlangan. [6] Faynbergning ijod maxsuli xotiralarda mangu porlaydi. Uning mehnatlari bejizga emas. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 502-son qarorida "Atoqli adiblar nomidagi maxsus stipendiyalar"ni ta'sis etish to'g'risidagi qarorga muvofiq, Aleksandr Faynberg nomidagi stipendiyasi ham O'zDJTU tomonidan iqtidorli, ijod va adabiyotga qiziqqan bakalavr va magistr darajasidagi talabalarni rag'batlantirish maqsadida ta'sis etilgan.[7] Undan tashqari shoirga hurmat sifatida 2020-yilda Toshkentdagi A. Navoiy nomidagi milliy bog'ning Adiblar alleyasida shoirning stol ustida utirgan haykali ham o'rnatilgan.[8] Aleksandr Faynberg — qalblarga she'riyat orqali yo'l topgan, adabiyot osmonida porlagan yuksak iste'dod egasi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017, 13-sentabr). PQ-3271-sonli qaror. LexUZ. <https://lex.uz/docs/-3338600>
2. Vikipediya. (n.d.). Aleksandr Faynberg. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
3. InterConf. (n.d.). IDRE maqola fayli (Faynberg haqida) [PDF]. <https://interonconf.org/index.php/idre/article/download/10923/9196/9003>

4. Google Scholar. (n.d.). Faynberg - maqolalar ro'yxati.
https://scholar.google.com/scholar?hl=en&as_sdt=0%2C5&q=Faynberg&btnG=#d=g_s_qabs&t=1748723884241&u=%23p%3DvsUdUSXxweQJ
5. Kun.uz. (2019, 11-avgust). Paxtakor-79 fojia: Xronologiya.
<https://www.kun.uz/news/2019/08/11/paxtakor-79-fojia-xronologiyasi>
6. Arboblal.uz. (n.d.). Faynberg Aleksandr Arkadevich.
<https://arboblal.uz/uzkr/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 5-aprel). PQ-199-sonli qaror. LexUZ.
https://lex.uz/docs/-4966477?ONDATE=05.04.2022&utm_source
8. Yandex Maps. (n.d.). Aleksandr Faynberg yodgorligi manzili.
<https://yandex.uz/maps/org/46108998703/>
9. Facebook. (n.d.). Pamyat' Aleksandra Faynberga - post.
https://www.facebook.com/pamaytialexanderfainberg/posts/1748204195346471/?locale=ru_RU
10. Ziyouz. (n.d.). Aleksandr Faynberg (1939–2009).
<https://www.ziyouz.uz/ru/poeziya/russkoyazychnaya-poeziya-uzbekistana/405---1939-2009?>